

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.14/30.12.2019.I.84.01 RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

GAFUROV BUNYOD BAXTIYAROVICH

**MAHALLABAY ISHLASH – HUDUDLARDA
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VOSITASI SIFATIDA
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical Science**

Gafurov Bunyod Baxtiyarovich

Mahallabay ishlash – hududlarda kambag‘allikni qisqartirish vositasi sifatida
(Surxondaryo viloyati misolida) 3

Гафуров Бунёд Бахтиярович

Махаллабай как средство сокращения бедности в регионах (на примере
Сурхандарьинской области)..... 31

Gafurov Bunyod Bakhtiyarovich

Mahallabay work as a means of reducing poverty in regions (on the example
of Surkhandarya region)..... 61

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 65

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.14/30.12.2019.I.84.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

GAFUROV BUNYOD BAXTIYAROVICH

**MAHALLABAY ISHLASH – HUDUDLARDA
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VOSITASI SIFATIDA
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – “Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.3.PhD/Iqt2479 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://ifmr.uz>) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zokirov Sayidfozil Sayidakbarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sodiqov Avazbek Madaminovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ro'ziev Oybek Abdimo'minovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.14/30.12.2019.I.84.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "28" 12 soat 15:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33A-uy, e-mail: info@ifmr.uz, exat@ifmr.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (44 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Xadra mavzesi, 33A-uy, e-mail: info@ifmr.uz, exat@ifmr.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "20" 12 kuni tarqatildi.
(2023-yil "20" 12 dagi 3 raqamli reestr bayonnomasi).



T.M. Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.M. Kurbanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi

D.M. Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b., iqtisodiyot fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha olib borilgan faol iqtisodiy siyosat natijasida dunyo aholisining "kambag'allik darajasi 1980-yillardagi 47 foiz o'rniga, 2020-yilga kelib 8 foizdan kamroqni tashkil etdi¹. Ushbu ko'rsatkichni 2030-yilga borib 6 foizgacha tushirish BMT Barqaror rivojlanish dasturining eng muhim maqsadlaridan biri sifatida belgilangan"².

Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan bugungi globallashtirish va mavhum sharoitlarda iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash maqsadida hududlar va mikrozonalar, ayniqsa, rivojlanishdan ortda qolayotgan og'ir mintaqalar iqtisodiyotini kompleks rivojlantirishda barcha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi turmush sharoitini yaxshilash yo'nalishlarida keng qamrovli ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy usullarini qo'llagan holda, ular o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, rivojlanishda ortda qolayotgan "og'ir" hududlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning tabiiy-iqtisodiy va tadbirkorlik salohiyatidan keng foydalanish, iqtisodiy boshqaruvni nomarkazlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda hududlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar "mahalla darajasi" gacha tushirilgani, "mahallabay" ishlash tizimini joriy etishda davlat rahbarining shaxsiy tashabbuskorligi, rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Jumladan, davlatimiz rahbari o'z nutqlarida "mahallabay" ishlash tizimi haqida: har bir xonadonda soat sayin ishonch paydo bo'lishi kerak"³ deb ta'kidlaganlar. Bu borada, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mahallaning "faol" modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash"⁴ vazifalari belgilangan. Bundan tashqari, "O'zbekiston-2030" strategiyasida hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish, 2026-yilga qadar kambag'allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish, kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash vazifalari belgilanganligi taqiqotning o'z vaqtida amalga oshirilganligini ko'rsatadi⁵.

¹<https://data.worldbank.org/topic/poverty>. – Жаҳон банки

²<https://sdgs.un.org/ru/goals/goal1> – БМТ

³Мирзиёев Ш.М. Маҳаллабай ишлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ва аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича 2022 йилдаги устувор вазифаларга бағишланган 2022 йил 15 январдаги видеоселектордаги президент маърузаси <https://xs.uz/uzkr/post/mahallalarda-ish-orinlari-yaratish-va-oilalar-daromadini-kopajtirish-yangi-tizimning-asosij-mezone-boladi> <https://xs.uz/uzkr/post/mahallalarda-ish-orinlari-yaratish-va-oilalar-daromadini-kopajtirish-yangi-tizimning-asosij-mezone-boladi>

⁴"2012-2026 йилларда Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси". Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. ЎЗР Қонунчилик ҳужжатлари тўплами. 2022 йил. 0082-сон, 3-банд.

⁵"Ўзбекистон — 2030" стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158 сон Фармони.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-sonli, 2021-yil 5-avgustdagi “Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik subyektlari bilan aholi o‘rtasida kooperatsiyani rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5214-sonli, 2021-yil 21-apreldagi “Kasanachilikni rivojlantirish asosida aholi bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-214-sonli, 2021-yil 23-avgustdagi “Surxondaryo viloyatida qulay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5228-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da Surxondaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-avgustdagi “Hududlarda “mahallabay” asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 504-sonli qarorlarini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy, axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari mamlakatimizda mahallabay ishlash tizimini rivojlantirish, uning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy jihatlarini xorijlik olimlardan I.Tyunen, V.Kristaller⁶, A.Veber⁷, A.Lyosh⁸, U.Izard⁹, F.Perru¹⁰, N.N.Baranskiy¹¹, N.N.Nekrasov¹², P.Krugman¹³, R.Domanskiy¹⁴, A.G.Granberg¹⁵,

⁶Allen P.M., Sanglier M. Self-Organization and Decision-Making // Environment and Planning. -1981. -Т. 13. - С. 167-183.

⁷Блауг М. Теория размещения промышленных предприятий Вебера // Экономическая мысль в ретроспективе = Economic Theory in Retrospect. - М.: Дело, 1994. - С. 578-580. - XVII, 627 с. - ISBN 5-86461-151-4.

⁸Шупер В. А. Экономический ландшафт Августа Лёша. - Искусство, 2006. - 32-34 с.

⁹Изард У. Методы регионального анализа: введение в науку о регионах. 1960 / Пер. с англ. В.М. Гохмана, Ю.Г. Липеца, С.Н. Тагера. -М.: Прогресс, 1966. -660 с.

¹⁰ПERRU Ф. Экономическое пространство: теория и приложения // Пространственная экономика. № 2. 2007;

¹¹Баранский Н.Н. Избранные труды. Научные проблемы географии. - М.: Мысль, 1980

¹²Некрасов Н.Н. Региональная экономика. Теория, проблемы, методы / Н.Н. Некрасов. – 2-е изд. – М.: Экономика, 1978. – с.340.

¹³Krugman P. Geography and Trade. Cambridge: The MIT Press, 1992

L.K.Gurieva¹⁶, V.I.Grishin¹⁷, B.A.Rayzberg¹⁸, V.G.Ignatov¹⁹ va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Respublikamizda T.M.Axmedov²⁰, A.S.Soliev²¹, A.M.Sodiqov²², O.O.Olimjonov²³, A.M.Qodirov²⁴, F.T.Egamberdiev²⁵, Sh.X.Nazarov²⁶, S.S.Zokirov²⁷, E.T.Yakubova²⁸, X.M.Saydaxmedov²⁹, Sh.X.Otaboev³⁰ va boshqa olimlar mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalla darajasidagi ayrim muammolar ustida ish olib borganlar.

Kambag'allikni baholash, o'lchash, uni qisqartirish masalalari xorijiy adabiyotlarda A.Sen³¹, T.Maltus³², G.Spenser³³, P.Taunsend³⁴, J.Prudon³⁵, J.J.Britz³⁶, U.R.Vagi³⁷, Sh.Mitra³⁸, Raj M.Desai³⁹, D.J.Karter⁴⁰, M.Orshanski⁴¹ va

¹⁴Доманьский Р. Устойчивость и неустойчивость региональных систем в процессе экономической трансформации // Белорусский экономический журнал. - 1998. - № 4. - С. 97-108

¹⁵Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУ ВШЭ, 2003. – 495 с.

¹⁶Гуриева Л.К. Стратегия инновационного развития экономики региона: теория и методология / Л.К. Гуриева. – Владикавказ: изд-во Северо-Осетинского гос. ун-та, 2007. – с.507.

¹⁷Гришин В.И. Региональная экономическая политика в условиях реформирования экономики Российской Федерации: проблемы, теория, практика: дис. ... д-ра экон. наук / В.И. Гришин. – М., 2005. – с.265.

¹⁸Райзберг Б.А. Государственное управление экономическими и социальными процессами / Б.А. Райзберг. – М.: Инфра-М, 2006. – с.384.

¹⁹Игнатов В.Г. Основы региональной экономики: учеб. пособие / В.Г. Игнатов, В.И. Бутов, Н.П. Кетова. – М. – Ростов н/Д : изд-во «Март», 2000. – с.448.

²⁰Ахмедов Т.М. и др. Теоретико-методологические основы устойчивого социально-экономического развития сельских территорий. Монография. Ташкент: Tafakkur nashriyoti, 2020. -200 с.

²¹Солиев А.С. ва бошқ. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: Университет, 2003. -304 с.

²²Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. -Т.: Иқтисод-молия, 2005. - 280 с.

²³Олимжонов О.О. и др. Основные тенденции социально-экономического развития регионов. //Экономика и статистика, 1998. - № 3. -С. 13-17

²⁴Кодиров А. и др. Региональная экономика. Ташкент. 2018. С.239.

²⁵Эгамбердиев Ф. ва бошқалар. Минтақалар иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш. Тошкент. Университет. 2020. 204б.

²⁶Назаров Ш.Х. Совершенствование методологических основ повышения конкурентоспособности регионов Узбекистана. Автореф. дисс. на соис. степени доктора экон. наук. –Т., 2016. – 48 с.

²⁷Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш. Монография. Ташкент: Tafakkur nashriyoti, 2020. -368 б.

²⁸Якубова Э.Т. Территориальные особенности диверсификации и специализации промышленности (на примере Ташкентской области), 2022 йил.

²⁹Сайдахмедов Х.И. Региональные аспекты рационального использования минерально-сырьевых ресурсов Узбекистана, 2002 йил.

³⁰Отабоев Ш. Худудлар мутаносиб ривожланишини давлат томонидан тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Ташкент. 2020.

³¹Sen A.K. Poverty: an ordinal approach to measurement // Econometrics, 1976. March. Vol. 81. – P. 285-307; Udaya Wagle. Rethinking poverty: definition and measurement // International Social Science Journal, 2002. December. – № 54 (171). – P. 155-165;

³²Мальтус Т.Р. Опыт закона о народонаселения. Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. В 5 томах. Т.1. От зари цивилизации до капитализма. - М.: Мысль, 2004. - С. 410-420;

³³Спенсер Г. Социальная статика. Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. – М.: Гама-Принт, 2013. – С. 312;

³⁴Townsend P. Poverty in the United Kingdom. – Berkeley: Univ. of California, 1979. – P. 31;

³⁵Прудон П.Ж. Бедность как экономический принцип. – М., 1998. – С. 10;

³⁶Britz J.J. A critical analysis of information poverty from a social justice perspective // Thesis. University of Pretoria, 2016. – 247 p.;

³⁷ Udaya Wagle. Rethinking poverty: definition and measurement //International Social Science Journal, 2002. December. – № 54 (171). – P. 155-165;

³⁸Shabana Mitra. Topics in measurement: multidimensional poverty and polarization. Dissertation for the degree of doctor of philosophy, 2011. December. – 121 p.;

³⁹Raj M.Desai, Nita Rudra. Trade, poverty, and social protection in developing countries // European Journal of Political Economy, 2018. ISSN 0176-2680 // <https://mobt3ath.com/uplode/books/book-94619.pdf>;

boshqalarning asarlarida tahlil qilingan.

Kambag'allik va aholining kam ta'minlanganlik muammolari L.A.Gordon⁴², V.I.Dobrenkov, A.I.Kravchenko⁴³, A.A.Razumov⁴⁴, V.N.Bobkov⁴⁵, L.N.Ovcharova⁴⁶, Z.T.Golenkova, Ye.D.Igixanyan⁴⁷ kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Kambag'allikni qisqartirish muammolari ustida o'zbek olimlaridan A.V.Vaxabov⁴⁸, R.R.Xasanov⁴⁹, X.P.Abulqosimov⁵⁰, N.K.Zokirova⁵¹, R.F.Djumanova⁵², M.K.Abdullaeva⁵³, B.B.Axmedov⁵⁴, F.A.Axmedov⁵⁵, B.B.Baxtiyorov⁵⁶, M.X.G'aniev⁵⁷ va boshqalar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Hozirgi davrda zamonaviy o'zbek mahallalari shakllanishi va faoliyat

⁴⁰Daniel J.Carter, Philippe Glaziou, Knut Lönnroth, Andrew Siroka, Katherine Floyd, Diana Weil, Mario Raviglione, Rein M.G.J.Houben, Delia Boccia. The impact of social protection and poverty elimination on global tuberculosis incidence: a statistical modelling analysis of Sustainable Development Goal 1. The Lancet Global Health, 2018. Volume 6. Issue 5. – P. e514-e522. ISSN 2214-109X;

⁴¹Mollie Orshansky: Author of the Poverty Thresholds / M.G.Fisher // AMSTAT NEWS, 2008. September. – P. 15-18.

⁴²Гордон Л.А. Бедность, благополучие, противоречивость: материальная дифференциация в 1990-е годы // Общественные науки и современность. - 2001, № 3. - С. 5-21.

⁴³Добренков В.И., Кравченко А.И. Социология: учебник / В.И. Добренков, А.И. Кравченко. - Москва: ИНФРА-Москва, 2004. - 624 с.

⁴⁴Разумов А.А. Экономический кризис в России: оценка главных социальных последствий / А.А. Разумов // Человек и труд. - 2010. - №4. - С.32-36.; Разумов, А.А., Ягодкина, М.А. Бедность в современной России/ А.А. Разумов, М.А. Ягодкина. - Москва: Формула права, 2007. - 336 с.

⁴⁵Бобков В.Н. Российская бедность: измерение и пути преодоления / В.Н. Бобков // Общество и экономика. - 2005. - №3. - С.19-37.; В.Н. Бобков, В.Г. Зинин, А.А. Разумов // Доклад в рамках проекта МОТ «Преодоление бедности, содействие занятости и местное экономическое развитие в Северо-Западном федеральном округе РФ». - Москва, 2004.

⁴⁶Овчарова Л.Н. Доходы и социальные услуги: неравенство, уязвимость, бедность: коллективн. монография/ Рук. Л.Н. Овчарова. Независимый институт социальной политики. - Москва: ГУ ВШЭ, 2005. - 348 с.

⁴⁷Голенкова З.Т., Игитханиян Е.Д., Казаринова И.В., Саровский Э.Г. Социальная стратификация городского населения / З.Т. Голенкова, Е.Д. Игитханиян, И.В. Казаринова, Э.Г. Саровский // Социологические исследования. - 1995. - №5. - С.91-102.

⁴⁸Вахабов А.В., Захидова Ш.Ш., Хажибакиев Ш.Х., Рахмонов Ш.Р., Одинаев Д.Ш., Файзуллаев Ж.Н., Бахтиёров Б.Б., Абдулхакимов С.Н. Ижтимоий сиёсат. Ўқув қўлланма. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2019. – 312 б.

⁴⁹Хасанов Р.Р. Камбағаллик муаммоси: мохияти ва омиллари // Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. – Т., 2021. Январь-март. – № 1 (12). – Б. 19-23.

⁵⁰Абулқосимов Ҳ.П. Ўзбекистонда ижтимоий хавфсизликни таъминлашнинг айрим масалалари// Ж. Иқтисод ва молия// Экономика и финансы, 2019 йил, 2-сон, 27-35-б.

⁵¹Зокирова Н. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти шароитида аҳолини социал ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш (Ўзбекистон Республикаси оилалари мисолида). Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: ТДИУ, 2001. – 24 б.

⁵²Джуманова Р.Ф. Аҳолининг турмуш даражаси: кўрсаткичлари ва уни ошириш йўллари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: ЎзМУ, 2008. – 26 б.

⁵³Абдуллаева М.К. Ижтимоий ҳимоя ва уни тартибга солишни такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: ЎзМУ, 2008. – 25 б.

⁵⁴Ахмедов Б.Б. Денежные доходы и расходы населения в Республике Узбекистан в условиях переходной экономики. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Т.: УзМУ, 2002. – 21 с.

⁵⁵Ахмедов Ф.А. Бозор муносабатлари шароитида хонадон хўжалигини ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатлари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: Ўз.Рес.Пр.Ҳ.ДЖҚА, 2011. – 27 б.

⁵⁶Бахтиёров Б.Б. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг иқтисодий механизмининг такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Т.: ЎзМУ, 2020. – 26 б.

⁵⁷Ғаниев М.Х.Ўзбекистонда камбағаллик муаммоси ва уни камайтириш йўллари. Монография. – Наманган, 2020. – 179 б.

yuritishining o'ziga xos xususiyatlari esa ko'plab xorijiy olimlarning ham ilmiy qiziqishlariga sabab bo'lgan. Xususan, Paul Georg Geys⁵⁸, Erik Sievers⁵⁹, Suda Masaru, Sheyla Marnie va Djon Mikelrayt⁶⁰, Deniz Kandiyoti⁶¹, Daniel Stevens⁶², E.Masikard va T.Trevizani⁶³, Neyma Nuri⁶⁴ kabi olimlarning ishlarida o'zbek mahallalari va ularning muammolari atroflicha yoritilgan.

O'zbek mahallalarining iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari xorijlik olimlar tomonidan ancha keng o'rganilganiga qaramasdan, mahalliy olimlar o'z tadqiqotlarida mahallalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim jihatlariga e'tibor qaratganlar. Xususan, aholining ijtimoiy xizmatlardan mahalladan chiqmasdan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha X.A.Karjavova ilmiy izlanishlar olib borgan⁶⁵. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mahallabay ishlash tizimi faoliyatini baholash uslubiyati bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Biroq, mamlakatimizdagi eng quyi ma'muriy-hududiy birlik – mahallalar kesimida tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanib ixtisoslashuvni belgilash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mahalla instituti imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha kompleks tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

Shundan kelib chiqib, mazkur ishda mahallaning iqtisodiy jihatlarini, uning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni tadqiq etildi. Bunda muallif tizimdagi muammolarning barcha jihatlarini qamrab olishga da'vo qilmagan holda, Surxondaryo viloyati misolida hokim yordamchilari faoliyatini o'rganib, ushbu tizimni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida "Mahallada xokim yordamchisi ishini samarali tashkil etish bo'yicha qo'llanma" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi Surxondaryo viloyati misolida hududlarda kambag'allikni qisqartirishda mahallabay ishlash tizimi orqali mahalla instituti

⁵⁸Geiss P.G. Mahallah and kinship relations. A study on residential communal commitment structures in Central Asia of the 19th century //Central Asian Survey. - 2001. № 20(1). - P. 97-106; Mc Cray T.R. Uzbekistan. Philadelphia, 2004. - P. 112.

⁵⁹Eric W.Sievers. Uzbekistan's Mahalla: From Soviet to Absolutist Residential Community Associations // The Journal of International and Comparative Law at Chicago-Kent: Volume 2, 2002; Coudouel Aline.

⁶⁰Sheila Marnie and John Micklewright. Targeting Social Assistance in a Transition Economy: The Mahallas in Uzbekistan. Innocenti Occasional Papers, Economic and Social Policy Series, no.63. - Florence: UNICEF International Child Development Centre. - P.33.

⁶¹Deniz Kandiyoti. Post-Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan // UNRISD Civil Society and Social Movements Programme Paper Number 11. - P.28

⁶²Daniel Stevens. NGO–Mahalla partnerships: exploring the potential for state society synergy in Uzbekistan // Central Asian Survey. 2005. № 24(3). - P.281-296.

⁶³Elise Masicard, Tommaso Trevisani. The Uzbek mahalla between state and society// Tom Everett Heath. Central Asia aspects of transition. - London, 2003.-P. 290.

⁶⁴Neema Noori. Delegating Coercion: Linking Decentralization to State Formation in Uzbekistan. Submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in the Graduate School of Arts and Sciences. Columbia University. 2006.-P.2.

⁶⁵Каржавова Х.А. Маҳалла тизимида ижтимоий хизматларни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. 08.00.05 – Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиёти, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация., Т – 2023 йил.

imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda mahalla instituti roli va mahallabay ishlashning mohiyatini ochib berish asosida nazariy qarashlarni umumlashtirish;

hududlarda mahallabay ishlash asosida kambag'allikni qisqartirishning ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etish;

Surxondaryo viloyati tumanlari va mahallalari iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy-iqtisodiy salohiyat, mahallalarning ixtisoslashuvi va tadbirkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;

olis va yetib borish qiyin bo'lgan tumanlarda kambag'allikni qisqartirish uchun iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslash;

kambag'allikni qisqartirishda hududning innovatsion, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish omillarini inobatga olgan holda iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish;

kambag'allikni qisqartirishda mahallabay ishlash tizimining me'yoriy-huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Surxondaryo viloyatining mahallalari bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Surxondaryo viloyati mahallalarida kambag'allikni qisqartirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, korrelyatsiya va regressiya, SWOT tahlil, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, ilmiy prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot o'tkazishda axborot ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi, Surxondaryo viloyatining rasmiy statistika hisobotlari, monografik kuzatuvlar natijalari, xalqaro tashkilotlarning takliflari va axborotlaridan hamda "onlayn-mahalla" platformasi materiallaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlarni mahalla kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalla raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari shtat birligini isloh qilgan holda har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchisi lavozimini joriy etish zarurligi asoslangan;

Surxondaryo viloyatining tog'li va erlari sho'rlangan hududlarida yangidan tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'ining amalda belgilangan stavkasini 50 foizga tushirish bo'yicha imtiyoz berish zarurati ilmiy asoslangan;

Surxondaryo viloyatida "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili bo'yicha 138 ta mahallalarni ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

mahallabay ishlash tizimi asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning yalpi

hududiy mahsulot hajmini oshirishga ta'sirini hisobga olib Surxondaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmining 2027-yilga qadar prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida manzilli ravishda kambag'allikni qisqartirish uchun tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishga ajratilgan resurslarni tuman (shahar) va mahalla darajasida taqsimlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatining tog'li va yerlari sho'rlangan hududlarida kambag'allikni qisqartirish borasida yangi tashkil etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari uchun 2024-yil 1-yanvarga qadar foyda solig'ining amalda belgilangan stavkasi 50 foizga tushirilishiga erishilgan;

“Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili bo'yicha Surxondaryo viloyatida kambag'allikni qisqartirish uchun 138 ta mahalla ixtisoslashtirish uchun tanlab olinib, ularda istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratilgan;

Surxondaryo viloyatida rivojlanishdan ortda qolayotgan 47 ta mahalla tanlab olinib, ularda kambag'allikni qisqartirish uchun aholi va “lider tadbirkor”lar o'rtasida kooperatsiya asosida tadbirkorlik faoliyati yo'lga qo'yilgan;

Surxondaryo viloyatining chekka va olis hududlarida joylashgan 35 ta mahallalar tanlab olinib, ushbu mahallalarda kambag'allikni qisqartirish uchun kasanachilikni tashkil etgan tadbirkorlarga subsidiya ajratish mexanizmi joriy etilgan;

kambag'allikni qisqartirish uchun mahallalar “namunali”, “o'rta” va “og'ir” toifalarga ajratilgan, unga ko'ra 47 ta “og'ir” mahallaga 58 ta “lider tadbirkor”lar birlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishini amalga oshirish jarayonidagi usullar va yondashuvlar, tahlillar Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Surxondaryo viloyati va tumanlari hokimliklarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, ushbu tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli davlat organlari tomonidan joriy qilinganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya doirasida olingan xulosalar va takliflardan tumanlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tabiiy-iqtisodiy salohiyat va mahalla imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tadbirkorlikni faollashtirish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, olingan takliflar va tavsiyalardan tumanlar o'rtasida iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish, ularni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi, aniqlangan hunarmandchilik, turizm, chegara hududlari salohiyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish maqsadida mahallabay

ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

hududlarni mahalla kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalla raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari shtat birligini isloh qilgan holda har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchisi lavozimini joriy etish bo'yicha takliflar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-31-sonli qarori loyihasining 14-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 6/30-02/143-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda qo'llash respublikamizning 9370 ta mahallasida hokim yordamchisi lavozimini joriy etish, hokim yordamchilari tomonidan 2022-yil davomida 1,1 mln nafar aholini daromadli mehnat bilan band qilish imkonini berdi;

Surxondaryo viloyatining tog'li va erlari sho'rlangan hududlarida yangidan tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'ining amalda belgilangan stavkasi 50 foizga tushirish bo'yicha imtiyoz berish to'g'risidagi takliflar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-avgustda "Surxondaryo viloyatida qulay investisiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5228-sonli qarori 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2023-yil 16-yanvarda 04-04/254-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotda qo'llash, viloyatning tog'li va erlari sho'rlangan hududlarida yangi tashkil etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari uchun 2024-yil 1-yanvarga qadar foyda solig'ining amalda belgilangan stavkasini 50 foizga tushirilishiga, viloyatda yangi tadbirkorlik subyektlari paydo bo'lishi birmuncha tezlashishiga va chekka hududlarida tadbirkorlar soni ko'payishiga turtki bo'ldi;

Surxondaryo viloyatida "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili bo'yicha 138 ta mahallalarni ma'lum turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha takliflar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-avgustda "Surxondaryo viloyatida qulay investisiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5228-sonli Qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2023-yil 16-yanvarda 04-04/254-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida, Surxondaryo viloyatida 138 ta mahalla ixtisoslashtirish uchun tanlab olinib, ularda istiqomat qiluvchi 11 mingga yaqin xonadonlarga 298 mlrd.so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilishiga erishildi;

mahallabay ishlash tizimi asosida tadbirkorlikni rivojlantirishning yalpi

hududiy mahsulot hajmini oshirishga ta'sirini hisobga olib, Surxondaryo viloyati bo'yicha 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz hisob-kitoblari Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi "Hududlarda "mahallabay" asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 504-son qarorining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil 29-dekabrda 6/30-02/143-sonli ma'lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, 5 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda, 1 ta ilmiy maqola nufuzli xorijiy jurnalda, shuningdek, xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda 9 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 127 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti, predmeti ifodalangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanti-rishda mahallabay ishlash mexanizmini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida mahallabay ishlashning hudud iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati va ularning nazariy asoslari, mamlakat iqtisodiyotida mahallabay ishlash samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar, mahallabay ishlash tizimini tadqiq etishning uslubiy asoslari o'rganilgan hamda mahalla instituti samaradorligini oshirishning xorijiy tajribalarni qo'llanilishi bayon etilgan.

Oxirgi yillarda (2017–2022-yillar) islohotlarni amalga oshirishda eng quyi ma'muriy-hududiy birlik sifatida mahallalarning o'rni va ahamiyati keskin oshdi. Binobarin, islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad inson farovonligini ta'minlash bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni bevosita mahallalarda amalga oshirish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Bugungi islohotlar davrida xalqimizning tayanchi hisoblangan mahalla fuqarolar yig'inining yanada samarali ishlashini davrning o'zi taqozo etadi. Bu borada davlatimiz rahbarining "Hech bir fuqaro o'zining muammolari bilan yolg'iz qolmasligi kerak. Aholi kayfiyati bu – islohotlarimiz va siyosatimizning ko'zgusi.

Kattami-kichikmi, odamlar aytgan har bir muammoga o‘z vaqtida munosabat bildirish, ularni bosqichma-bosqich hal qilish barcha darajadagi rahbarlarning eng ustuvor vazifasi bo‘lishi shart”⁶⁶ degan fikrlari mahalla institutini yanada kuchliroq qilib shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish birinchi navbatda mahalliy davlat organlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining eng asosiy vazifasi etib belgilangan.

Tadqiqot jarayonida mahallaning hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlaridagi vazifalari tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Mahalla institutining hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni

Manba: Tadqiqotlar davomida muallif tomonidan tuzilgan.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar eng quyi tizimda mahallalarda o‘z aksini topadi. Mahallada aholi turmush darajasining o‘zgarishiga qarab islohotlarning natijadorligini baholash mumkin. Shu sababli, mustaqillik

⁶⁶Shavkat Mirziyoyev: Aholi kayfiyati – islohotlarimiz va siyosatimizning ko‘zgusi. Davlat rahbari ishtirokida 2022-yil 11-oktyabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nutq. <https://president.uz/uz/lists/view/5599>

yillarida davlat o‘zining ma’lum funktsiya va vazifalarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazish siyosatini yuritdi.

Tadqiqot davomida mahallabay ishlash tizimini samarali tashkil etish uchun amalga oshiriladigan ustuvor yo‘nalishlarni shartli ravishda 3 ta guruhga ajratdik:

1. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash.
2. Ijtimoiy muammolarni hal etish.
3. Mahallada infratuzilmani yaxshilash.

Bundan tashqari, mahallabay ishlashni tadqiq qilishda mahallalar ixtisoslashuvini kuchaytirish yuqori samara berishi isbotlangan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida ixtisoslashtirish uchun avvalo xonadonlarni ma’lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki mahsulot yetishtirishga o‘rgatish kerakligi aniqlandi. Qisqacha aytganda, mahallaning ixtisoslashuvini xonadonlar mashg‘ulot turi belgilab beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, mahallalar ixtisoslashuvini aniqlashda xonadonlar hisobidan kelib chiqib, quyidagi uslubiy yondashuv asosida hisob-kitob ishlarini bajarish taklif etiladi.

$$\Delta (X_1 + X_2 + X_3 + \dots + X_n) \geq N * 0.8 \quad (1)$$

bunda N – mahalladagi jami xonadonlar soni;

X_1 - ma’lum turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan rasmiy shug‘ullanayotgan xonadonlar;

X_2 - ma’lum turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan norasmiy shug‘ullanayotgan xonadonlar;

X_3 - tomorqasida mahsulot yetishtirib sotayotgan xonadonlar;

X_n - ma’lum turdagi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan xonadonlar.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan kelib chiqqan holda, mahallalarning ixtisoslashuvini aniqlash samaradorlikni oshiradi. Bunda bitta mahalla bir yoki bir nechta ixtisoslashuvga ega bo‘lishi ham mumkin.

Hududlarni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishda oilaviy tadbirkorlikning roli juda muhim. Mahallada oilaviy tadbirkorlik rivojlanganligini “mahallabay” yondashuvda baholash bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish taklif etiladi:

- MFY hududidagi oilalar soni (birlik);
- MFY hududidagi oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi oilalar soni (birlik);
- MFY hududidagi oilaviy tadbirkorlarning oilalar soniga nisbatan ulushi.

Ushbu yondashuv mahallalarni oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish darajasiga ko‘ra toifalash imkonini beradi. Bunga ko‘ra, yuqori (20 va undan yuqori foiz) – “yashil”, o‘rta (10-19 foiz) – “sariq” va past (0 dan 9 foizgacha) – “qizil” toifadagi MFY larga toifalash mumkin bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan oilalar ulushini aniqlash

MFY nomi	Oilalar soni	Oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan oilalar soni		MFY toifasi
		jami	ulushi,%	
1	2	3	$4=(2)*100/(3)$	$5=4=(20-100)$ - “yashil”; (10-19) - “sariq”; (0-9) - “qizil”

Manba: Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishida Xitoy, Turkiya hamda Indoneziya davlatlarining kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tajribalari o'rganildi. Yurtimizda joriy qilingan "mahallabay" ishlash tizimining mazmuni ko'p jihatdan Xitoy Xalq Respublikasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilgan islohotlarga o'xshashligi sababli ushbu mamlakat tajribasi kengroq yoritildi.

Taraqqiyotning o'ziga xos yo'lidan borgan hamda o'zining boy tarixiga ega bo'lgan mazkur davlat 2000-yillarga kelib yalpi ichki mahsuloti 1,2 trln. AQSh dollari bilan jahondagi eng rivojlangan 10 mamlakat qatoridan o'rin olgan bo'lsa, keyinchalik YaIM hajmi 2021-yilda 17,7 trln. AQSh dollarini tashkil etib, dunyoning ikkinchi yirik iqtisodiyotiga aylandi⁶⁷. Xitoy tezkor islohotlar, ochiqlik siyosati hamda inson resurslaridan samarali foydalanish natijasida global darajada eng yirik ishlab chiqaruvchi va eksportchi mamlakatga, yuqori texnologiyalarga asoslangan "dunyo fabrikasi"ga aylandi⁶⁸.

Dissertatsiyaning "**Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahallabay ishlash tizimi holati**" deb nomlangan ikkinchi bobida Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahallabay ishlash tizimi tahlil qilingan.

Surxondaryo viloyatida mahallabay tizimni joriy etish bo'yicha ikki yillik, hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish bo'yicha bir yillik tajriba asosida mahallabay ishlash tizimi orqali amalga oshirilgan ishlar o'rganildi.

Surxondaryo viloyatida xonadonlarni toifalarga ajratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida hokim yordamchilari tomonidan mahallalardagi 491,2 ming ta xonadonlar xatlovdan o'tkazilgan.

Viloyatda 2022-yil davomida aholining daromadli mehnatga jalb qilish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, daromadli mehnatga 224,6 ming ishsizlar jalb qilingan bo'lsa, shundan, o'zini o'zi band qilish evaziga 81,9 ming nafar fuqarolar ro'yxatga olingan, 6,5 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlik-ka va 14 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilingan, 90,2 ming nafar fuqarolar yangi yaratilgan doimiy ish joylariga joylashtirilgan, 31,9 ming nafar fuqarolarga ijara asosida yer ajratilgan.

Hokim yordamchilari tomonidan 37 ming xonadonga "Har bir oila-tadbirkor" dasturi asosida 920,7 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobida taklif etilgan mexanizmlar asosida Angor tumani "Kayran" mahallasi iqtisodiy holati baholandi hamda mahallalalar ixtisoslashuvini, unga qanday omillar ta'sir qilganligini o'rganildi.

Mahallalarning ixtisoslashuviga ta'sir etuvchi omillarni turkumlashtirishga harakat qilindi:

Tabiiy-geografik shart-sharoit. Mahallalarning qulay tabiiy-geografik shart-sharoitlarga ega bo'lishi, qulay iqlim, yo'l bo'yi, turizm yoki rekreatsion obyektlarning bo'lishi, suv havzalari, dam olish uchun qulaylik va boshqa omillar ta'sirida ixtisoslashuvi shakllangan mahallalar.


⁶⁷China GDP 1960-2023 // <https://www.macrotrends.net/countries/CHN/china/gdp-gross-domestic-product>

⁶⁸Prableen Bajpai is the founder of FinFix and Analytics Private Limited. She has 10+ years of experience as a finance, cryptocurrency, and trading strategy expert. Learn about our editorial policies Why China Is "The World's Factory" // 2018 йил // <https://www.investopedia.com/articles/investing/102214/why-china-worlds-factory.asp>

Iqtisodiy shart-sharoit. Hududida tarixan hunarmandchilikning ma'lum turlari rivojlanib kelayotganligi, yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi yoki avvallari ishlab chiqarish bo'lgan, biroq hozirgi kunda ishlab chiqarish to'xtatilgan mahallalar.

Inson kapitali. Insonlarning ilmi, aqli va zakovati natijasida ma'lum bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mahallalar ham mavjud. Ularning kichik bir izlanishi yoki kashfiyoti shu mahalla aholisini daromadli qilish imkonini yaratgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida Surxondaryo viloyati iqtisodiy holatini tahlil qilar ekanmiz, tuman va shaharlarning mavjud iqtisodiy slohiyati, ishlab chiqarish quvvatlarining shakllanganligi, mahallalar ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda tuman va shaharlarning ixtisoslashuv xaritasi ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining “o‘shish nuqta”lari

Manba: Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya asosida Surxondaryo viloyatida 721 ta mahalla ixtisoslashuvi o‘rganildi. Ulardan:

- dehqonchilik (sabzavot va boshqa ekinlar yetishtirish) 199 ta;
- issiqxona tashkil etish 130 ta;
- bog‘dorchilik va uzumchilik 86 ta;
- chorvachilik 139 ta;
- savdo va xizmat ko‘rsatish 107 ta;
- kichik ishlab chiqarish 11 ta;
- hunarmandchilik 7 ta;
- boshqa yo‘nalishlarda 36 ta mahallalar ixtisoslashuvga ega.

Mahallalarning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olib, “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida har bir mahallani aniq bir yo‘nalishga ixtisoslashtirish,

imtiyozli kreditlarni mavjud sharoit va oilalarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda ajratishga e'tibor qaratish belgilandi. O'rganishlar natijasida 138 ta mahalla "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili asosida ixtisoslashtirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlanib, tanlab olindi.

Shu bilan birga, bildirilgan takliflarga asosan, viloyatning tog'li va yerlari sho'rlangan hududlarida yangidan tashkil etiladigan va shu hududlarda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari uchun 2021-yil 10-sentabrdan 2024-yil 1-yanvargacha qadar foyda solig'ining amalda belgilangan stavkasi 50 foizga pasaytirildi. Natijada viloyatda yangi tadbirkorlik subyektlarining paydo bo'lishi birmuncha tezlashdi.

Respublikamiz hududlari mahallalarida tadbirkorlik turlarining rivojlanganligini inobatga olib quyida ko'rsatilgan mahallalarga biznes sayohatlarni tashkil etish hamda ijobiy tajribani o'rganishi taklif etiladi.

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani "Boboshbek" mahallasida mavjud trikotaj fabrikasi bundan 15 yil oldin faoliyatini to'xtatgan. Natijada mazkur fabrikada mehnat qilgan yuzlab ishchilar o'zlari o'rgangan bilimi, hunari va ko'nikmalari asosida uy sharoitida kichik trikotaj ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishgan. Hozirgi kunda ushbu mahallada 935 ta xonadondan 544 tasi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Andijon viloyati Asaka tumanida "Uzavtomotorz" korxonasi joylashgan hududdagi mahallalar mazkur korxonaga ta'sirida ixtisoslashuvga erishgan. Ushbu mahallalardagi aholi xonadonlarida ishlab chiqarish korxonasidan chiqqan yog'och mahsulotidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun poddonlar, yashiklar ishlab chiqariladi.

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi Kumushkon mahallasi geografik joylashuvi bo'yicha tog'li hududda, havosi toza, insonlarning dam olishi uchun qulay hamda Toshkent shahriga yaqin hududda joylashgan. Shuningdek, ushbu mahalla hududida ziyoratgoh ham mavjud. Mazkur omillar mahallaga yiliga 20 mingga yaqin sayyohlar kelishiga sabab bo'ladi. Natijada ushbu mahalla xonadonlarining 60 foizi uy mehmonxonalari tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani "Chim" mahallasida istiqomat qiluvchi tadbirkor Yevropada tibbiyot yo'nalishida magistraturada tahsil olgan vaqtlarida gulxayri o'simligining kosmetika sanoati uchun noyob xom ashyo ekanligini o'rganadi. Hozirda u gulxayri o'simligini Yevropaga eksport qilish uchun kelishuvga erishgan hamda Chim qishlog'idagi 300 ga yaqin aholi xonadonlarida kooperatsiya asosida gulxayri yetishtirish joriy etilgan.

Andijon viloyatining Asaka, Toshkent viloyatining Parkent, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanlarida mahallalar muayyan turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga chuqur ixtisoslashgan. Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi "Bahor", "Ilg'or", Jarqo'rg'on tumanidagi "Avlod", "Guliston", Termiz tumanidagi "Orol", "Namuna" mahallalarida ham eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Bunday ilg'or tajribalarni ommalashtirish ijobiy samara beradi.

Tadqiqot ishining 1.3-§ida ko'rsatilgan uslubiy tavsiyalar bo'yicha Surxondaryo viloyati Angor tumani mahallalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oilaviy tadbirkorlik roli baholandi (2-jadval).

Angor tumanida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi bo‘yicha mahallalar tasnifi

MFY nomi	Toifasi	Tasnifi
Karvon	“yashil”- yuqori daraja	Bu mahalla tumanda “Har bir oila – tadbirkor” davlat dasturi maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda yetakchilik qiladi. Ushbu mahallaga jami oilaviy tadbirkorlikning 22,2%i to‘g‘ri keladi. U tuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xususan, aholi bandligi va daromadlarining yuqoriligi, yangi ish o‘rinlari yaratilishida salmoqli o‘ringa ega.
Bahor, Ilg‘or, Yangi Turmush	“sariq” - o‘rta daraja	Ushbu mahallalarda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi nisbatan yaxshi. Ularning ulushi o‘rtacha 11%. Bu toifaga mansub mahallalardagi oilalar o‘z bizneslarini kengaytirish va aylanma mablag‘larini ko‘paytirish uchun kredit mablag‘lari va subsidiyalarga ehtiyoji yuqori.
Gilambob, Gulzor, Guliston, To‘lqin, Ulug‘bek, Navro‘z, Xomkon, Xo‘janqon, Yuqori Talloshqon, Yuqori Xo‘jaqiya, Yuqori Tallimaron, Yangiobod, Qorasuv, Zang, Gilambob, Dehqonbirlashuv, Sharq Guli, Zertepa, Kattaqum, Novshaxar, Oxunbobev, Tallashqon, Chinobod, Kayran, Madaniyat, Yangi hayot, Markaz, Farovon, Qadimiy Angor, Qorabog‘, Qo‘shtegirmon, Navbahor, O‘zbekiston.	“qizil” - past daraja	Bu toifadagi mahallalar tadbirkorlik infratuzilmasining rivojlanmaganligi, bozor hududi va magistral yo‘llardan uzoqda joylashganligi hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun dastlabki kapitalning yetarli emasligi bilan tavsiflanadi. Ular tumandagi barcha mahallalarning 95,1 %, tadbirkor oilalarning 85,7 % tashkil etadi. Bu mahallalardagi oilalar tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun o‘z ichki imkoniyatlari (moliyaviy resurslar, mulk, biznes uchun moslashmagan turar joy) yetarli emas. Mahallabay ishlash asosida hududlardagi bo‘sh binolardan samarali foydalanish, tikuv sexlarini tashkil etish, sanoat zonalarini bilan kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish maqsadga muvofiq.

Manba: Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Surxondaryo viloyati Angor tumani bo‘limi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


Har doim ham bo‘sh kapital va tadbirkorlik qobiliyatlari bir shaxsda jamlanmasligi barchaga ma‘lum. Tadbirkor insonning qobiliyatidan unumli foydalanish, uning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish evaziga yetarlicha foydalanilmayotgan resurslarni iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb etishda davlatning tartibga solish funksiyalarini qo‘llash samarali natijalarni beradi. Shu nuqtai nazardan yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyotda qo‘llash kelgusida bu metodikaning ham samaradorligini ko‘rsatib beradi.

Aytish mumkinki, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mahallalarda aholi tadbirkorligini ko‘paytirish lozim. Tadbirkorlik subyektlari bozor mexanizmlari asosida paydo bo‘lishiga erishish kerak. Buning uchun davlat tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qabul qilinadigan me‘yoriy huquqiy hujjatlarni, “o‘yin qoidalari”ni mahalla darajasida tadbirkorga ta‘sirini baholash nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi bob **“Surxondaryo viloyatini iqtisodiy rivojlantirishda**

mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari” deb nomlanib, unda Surxondaryo viloyatini mahallabay ishlash tizimi yaxlit ko‘rinishda tasvirlab berilgan, mahallabay ishlashning yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishga ta‘siri hisoblangan, 2027-yilgacha bo‘lgan davrda mahallabay ishlash asosida tadbirkorlikni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish prognozlarini amalga oshirilgan, mahallabay ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritib berilgan.

Mahallabay ishlashda aholining keng qatlamlarini daromadli qilish, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, bandlikni ta‘minlash, kishilarni kasb-hunarga o‘qitish, ijtimoiy himoya qilish hamda infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni hal etish kerak bo‘ladi. Buning uchun ko‘p miqdorda xarajatlar talab etiladi va budjetga bosim oshadi. Qisqacha aytganda, mahallabay ishlash tizimini quyidagi siklik ko‘rinishda tasvirlash mumkin (3-rasm).



3-rasm. Surxondaryo viloyati misolida 2022-yilda mahallabay ishlash asosida hududni rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari

Manba: Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2022-yil davomida Surxondaryo viloyatida 10 499 ta tadbirkorlik subyektlari yaratilgan bo‘lib, ulardan 6 416 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari hamda 4 083 tasini yuridik shaxslar tashkil etadi. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra 2022-yil mahallabay ishlarni tashkil etish natijasida 4 083 ta yuridik shaxslar tashkil etish uchun 377,6 mlrd.so‘m imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Mahallabay ishlash asosida yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi prognozini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$YTS_n = YTS_{n-1} * cons (1.3; 1.16; 1.17; 1.18; 1.19;) \quad (2)$$

bunda YTS – tashkil etiladigan yangi tadbirkorlik subyektlarining soni;

cons (2023-1.3; 2024-1.16; 2025-1.17; 2026-1.18; 2027-1.19;) – keyingi 5 yil davomida yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etishning o‘rtacha o‘shish sur‘ati, %;

n – prognoz qilinayotgan yil;

$n-1$ – prognoz qilinayotgan davrdan bir yil oldingi ko‘rsatkich.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-martdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qaroriga muvofiq, Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 2023-yilda yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori

1091 mlrd.so‘mni tashkil etadi⁶⁹.

Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 128,4 foiz ko‘proq mablag‘lar yo‘naltiriladi. Ushbu holat so‘ngi 5 yil davomida ham davom etishi kutiladi.

Mahallabay asosda tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi prognozini quyida formula orqali hisoblash mumkin:

$$IChH_n = IChH_{n-1} * cons (1.3; 1.16; 1.17; 1.18; 1.19;) \quad (3)$$

bunda $IChH$ – yangi tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi mlrd.so‘m;

cons (2023-1.3; 2024-1.16; 2025-1.17; 2026-1.18; 2027-1.19;) – tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘rtacha o‘sishi %;

n – prognoz qilinayotgan yil;

$n-1$ – prognoz qilinayotgan davrdan bir yil oldingi ko‘rsatkich.

Yuqoridagi kelib chiqqan holda, 2023–2027-yillarda mahallabay ishlash asosida tadbirkorlikni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Prognozlarga ko‘ra, 2027-yilga borib viloyatda mahallabay ishlash asosida 10,1 mingta yuridik shaklda tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko‘rsatadi. Buning uchun, 1 trln. so‘m miqdorida kreditlar ajratilishi prognoz qilinadi. Natijada, ushbu tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2,3 trln.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilib, 1,3 trln. so‘m hajmda qo‘shimcha qiymat yaratadi. Ushbu qarash bo‘yicha, qo‘shilgan qiymat Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi “2022–2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”ga VMQ-245-sonli qarori bilan belgilangan viloyat yalpi hududiy mahsulotining 2 foizini tashkil etadi.

Shundan kelib chiqib, viloyatda yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan va ular mahallabay ishlash asosida Surxondaryo viloyatini iqtisodiy rivojlantirishning prognoz hisob-kitoblarida o‘z aksini topgan (3-jadval).

Mustaqillik yillarida mahalla instituti faoliyati bo‘yicha huquqiy asoslar ishlab chiqildi, so‘nggi yillarda esa mavjud voqe‘liklardan kelib chiqib, uning me‘yoriy asoslari takomillashtirildi. O‘zbekistonda mahallabay ishlash tizimining asosi bo‘lgan “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun dastavval 1993-yil 2-sentabr kuni qabul qilingan. Keyinchalik, mazkur qonunning yangi tahriri 1999-yil 14-aprel kuni ikkinchi marta hamda 2013-yil 22-aprel kuni uchinchi marta qabul qilingan. Biroq, o‘zgartirish va qo‘shimchalarni amalda qo‘llash uchun mexanizmlarning aniq belgilab qo‘yilmaganligi, so‘nggi yillarda mahalla institutining isloh qilinishi sababli ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilinishi lozim.

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 мартдаги “Оилавий тadbirkorликни ривожлантириш дастурлари доирасида аҳолининг бизнес ташаббусларини кўллаб-қувватлашни янги босқичга олиб чиқишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-39 сонли қарори.
// <https://lex.uz/docs/6374137>

**Mahallabay ishlash asosida Surxondaryo viloyatini iqtisodiy rivojlantirishning prognoz
KO'RSATKICHLARI**

№	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	fakt	prognoz				
			2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil	2027-yil
1	YaHM hajmi (VMQ-245 ga asosan)	mlrd.so'm	34 859	37 300	42 600	48 700	55 200	62 376
		o'sish %	4,0	7,5	7,4	7,7	7,7	7,7
2	Mahallabay tadbirkorlik subyektlar soni	ta	4 083	5 308	6 157	7 204	8 501	10 116
3	Mahallabay tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmi	(mlrd.so'm)	898	1 169	1 356	1 600	1 904	2 265
		o'sish %		30,0	16,0	17,0	18,0	19,0
4	Mahallabay tadbirkorlik subyektlari tomonidan qo'shimcha qiymat yaratish	mlrd.so'm	473,9	627,8	755,3	907,3	1 099	1 330
	shundan:							
	qishloq xo'jaligi	mlrd.so'm	23,2	30,1	35,0	41,3	49,1	58,4
	qurilish	mlrd.so'm	7,2	9,4	10,9	12,9	15,3	18,2
	sanoat	mlrd.so'm	2,2	2,8	3,2	3,8	4,6	5,4
	xizmatlar	mlrd.so'm	441,3	573,7	665,5	785,3	934,5	1 112
5	Mahallabay subyektlar tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymatning YaHM hajmidagi ulushi	foiz	1,4	1,7	1,8	1,9	2,0	2,1
6	YaHMda qo'shimcha qiymat ulushining o'sish sur'ati	foiz		21,4	5,9	5,6	5,3	5
7	Kichik biznes subyektlariga kredit ajratish (VMQ-245 ga asosan)	mlrd.so'm	850	1 091	1 000	1 000	1 000	1 000

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mahallalarning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, resurslarni taqsimlash hamda tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlar mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida yangi qonun loyihagini ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

mahallalarning toifalari aniqlashtirish, jumladan:

hududiy joylashuvi bo'yicha shaharda, tuman markazida, tuman markazigacha 30 km bo'lgan masofada, tuman markazidan 30 km va undan olis masofada, tog'li va cho'l hududlarda, chegara (yoki anklav) hududda joylashgan mahallalar;

aholi soni bo'yicha – 1000 nafargacha, 1001–2000 nafargacha, 2001–4000 nafargacha, 4001–6000 nafargacha, 6001–8000 nafargacha va 8000 nafardan ziyod aholisi bo'lgan mahallalar;

mahallalarni tuzish, birlashtirish, bo'lish, tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish kiritishning qonuniy mexanizmlarini belgilash;

“Mahalla budjeti” tizimini joriy etish, uning manba'lari, foydalanish tartiblarini aniq belgilash;

mahalladagi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektorlarining maqomi, vakolatlari va javobgarligini aniq belgilash;

mahalla raislarining vakolat va majburiyatlarini aniq belgilash, ularni kengaytirish;

mahallalarda ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish;

mahallalarning davlat organlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqni muhofaza qilish yo'nalishlarida hamkorlik qilish;


ko'chaboshi va uyboshilarning faoliyatini tashkil etish.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadlariga erishish, kambag'allikni qisqartirish uchun mahallalarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy resurslar, usullar, vositalar, dastaklar jamlanmasini aniqlash muhim. Mahallabay ishlashda samaradorlikni oshirish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni quyidagicha guruhlash mumkin (4-rasm).

Tashkiliy mexanizmlar.

Raqamlashtirish va monitoring joriy qilish. Bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda mahallabay ishlashda maqsadni aniq belgilash, hisob-kitoblarni to'g'ri amalga oshirish uchun avvalo mahallalar chegaralari aniq belgilangan bo'lishi, sohaga axborot texnologiyalari keng joriy etilganligi hamda ijtimoiy hayotda barcha ko'rsatkichlar mahalla darajasida shakllantirilgan bo'lishi zarur. Bunda aholining pasport ma'lumotlarida yashash manzili yozilganida mahallasining ko'rsatilmasligi muammolardan biridir. Shundan kelib chiqib, ko'rsatilgan muammolarni hal etishda quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

yagona mahalla platformasini ishlab chiqish va uni onlayn mahalla, yoshlar daftari hamda xotin-qizlar platformalari bilan integratsiya qilish;



4-rasm. Mahallabay ishlash tizimi samaradorligini oshirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari

Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish markazi tomonidan fuqarolarning pasport ma'lumotlarini shakllantirishda yashash manzili ma'lumotlariga mahallasi nomini ham kiritish;

mahallada "beshlik" faoliyatini baholash va ish haqi to'lashda mahallalarning markazdan uzoqligi va tarqoqligini inobatga olish hamda tuman va shaharlar toifalaridan kelib chiqish zarur hisoblanadi.

Mahallalarni ixtisoslashtirish. Mahallalarni "bir mahalla – bir mahsulot" tamoyili bo'yicha meva-sabzavotchilik, issiqxona xo'jaligi, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, kurkachilik va boshqa yo'nalishlarga ixtisoslashtirish dehqon va tomorqa xo'jaliklaridan foydalanish samaradorligi va mahsuldorligini oshiradi. Shundan kelib chiqqan holda quyidagilar taklif etiladi:

tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan mahallalarni ixtisoslashtirish uchun kichik grantlar va ssudalar ajratish;

televideniya, internet saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlarda mahallalarni ixtisoslashtirish to'g'risida targ'ibot materiallarini ko'paytirish;

mahallalarni ixtisoslashtirishda infratuzilmani yaxshilash davlat tomonidan, mahsulot yetishtirish tadbirkorlar yoki xonadonlar tomonidan amalga oshirilishini "Obod ko'cha", "Obod xonadon" tamoyili asosida tashkil etish taklif etiladi.

Kasb-hunarga o'qitish. Aholining yuqori daromadli mehnat bilan shug'ullanishi, kasb-hunarga ega bo'lishi ta'lim sifatiga borib taqaladi. Shundan kelib chiqqan holda, mahallalarda quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-maydagi 252-sonli qaroriga subsidiya ajratiladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga asbob-uskuna yetkazib berishdan oldin kasb-hunarga o'qitish majburiyatini kiritish;

mahallalarda davlat-xususiy sherikchilik asosida kasb-hunarga o‘qitish maskanlarini tashkil etish;

nodavlat ta’lim tashkilotlari uchun ishsiz aholini talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish bo‘yicha grantlar tashkil etish;

viloyatlarda xorijdan qaytgan fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o‘rganish markazlarini tashkil etish, ularning xulosalari bo‘yicha kasb-hunarga o‘qitish ishlarini amalga oshirish taklif etiladi.

Biznes sayohatlar tashkil etish. Avvalo mahallalarning qo‘shni mahallalar bilan, tumanlararo mahallalar bilan, hududlararo mahallalar bilan hamkorlik qilishi, xonadonlar tajribasini o‘rganishida kamchiliklar mavjud. Mazkur yo‘nalishda biznesni integratsiya qilish, ya’ni biznes sayohatlar tashkil etish yuqori natijalar beradi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

chuqur ixtisoslashuvga erishgan Angor tumani Bahor va Ilg‘or mahallalari misolida biznes sayohatlar tashkil etiladigan mahallalarni aniqlash;

ixtisoslashgan mahallalarga boshqa mahallalar aholisining biznes sayohatlarini tashkil etish;

hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda “Biznes mashrutlar” ishlab chiqib odamlar ko‘radigan joylarga ilib qo‘yish;

tadbirkorlik yaxshi rivojlanmagan mahallalarda tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan yoshlar uchun Yoshlar ishlari agentligi tomonidan “Biznes oromgoh” o‘quvlarini tashkil etish;

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan ixtisoslashgan mahallada tadbirkorlik qilayotgan xonadonni boshqa mahalladagi bir yoki bir nechta xonadon bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.

Kooperatsiyani ommalashtirish. Mahallalarda tadbirkorlik subyektlari va aholi o‘rtasida kooperatsiya asosida ishlarni ommalashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

kooperativlar tashkil etish mumkin bo‘lgan faoliyat yo‘nalishlarini alohida belgilash;

tahlillarga ko‘ra, “lider” tadbirkorlar uchun berilgan imtiyozlarni eshitgan juda ko‘p tadbirkorlik subyektlari ushbu imtiyozdan foydalanishni istaydi. Ba’zi hollarda imtiyozdan foydalangan tadbirkorlar kutilgan natijani berishmayati. Shundan kelib chiqqan holda, “Lider” tadbirkor bo‘lish uchun aniq talablarni belgilash.

Iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlar.

Biznesni moliyalashtirish. Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, mablag‘larni qayta taqsimlash, ayrim sohalarni imtiyozli kreditlash mahallabay tizimda ham eng muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Biznesni moliyalashtirishda samaradorlikni oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

oilakredit.uz elektron platformasi orqali kredit ajratish bosqichlarini qisqartirish, buning uchun raqamlashtirishna yanada kengroq joriy etish;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlarning qaytmaslik riskini baholash bo‘yicha Andarrayting tizimini joriy etish

(amalda KATM tizimi);

aksariyat yo‘nalishlarda kredit foizini baland qilib (17-19 foiz) naqd yoki plastik karta orqali ajratishni yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlarning xom-ashyo mahsulotlari, asbob-uskunalar sotib olish va biznesini rivojlantirishga imkon yaratadi;

kredit olib samaradorlikka erishgan tadbirkorlarga shu yo‘nalishda ishini kengaytirish uchun kreditlarning eng ko‘p miqdorini, shu foizda birinchi marta ajratilgan kreditning ikki barobarida belgilash maqsadga muvofiq.

Mahalla budjetini shakllantirish. Mahalladagi barcha turdagi katta yoki kichik muammolarni hal etish uchun qaysidir mahalliy mas‘ul tashkilotlarga murojaat qilishi kerak, natijada mas‘ul tashkilotlarning mahallaga yetib kelib, muammoni o‘rganishi hamda hal etishi uchun ko‘p vaqt talab etiladi. Ushbu holat, aholi o‘rtasida norozilik kayfiyatini kuchayishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-dekabrdagi ““Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-sonli qaroriga muvofiq, aholining mol-mulk va yer solig‘ini undirish mahallaning o‘ziga o‘tkazilishi belgilandi⁷⁰. Ammo jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tartibning tasdiqlanmaganligi undan foydalanish imkoniyatini cheklab turibdi. Shundan kelib chiqqan holda, mahalla budjeti jamg‘armasidan foydalanish yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi:

mahalla hududidagi ichki yo‘llar, piyodalar yo‘lakchalari, yoritish tizimi, elektr energiyasi hamda tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqava suv tizimini ta‘mirlash va tiklash;

mahalla fuqarolar yig‘ini binosi, mahalla hududida joylashgan sport maydoni, nuroniylar choyxonasi, yoshlar markazi, bolalar maydonchasi, kutubxona, madaniyat markazini qurish, mukammal va joriy ta‘mirlash hamda ularni jihozlash.

Shuningdek, mahalla budjetini yanada rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

so‘nggi yillarda davlat o‘zining muayyan funktsiya va vakolatlarini mahallaga o‘tkazish siyosatini yuritmoqda, davlat tomonidan mahallaga o‘tkaziladigan har qanday funktsiya va vakolatlarni yetarli moliyaviy resurslar bilan birga o‘tkazilishini qonunchilikda belgilab qo‘yish;

“Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririni qabul qilishda mahallalar tomonidan homiylik xayriyalarini shakllantirish va ulardan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilash;

moliyaviy jihatdan zaif bo‘lgan mahallalarga mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish masalasini ko‘rib chiqish;

mahalla budjetiga uy-joylarni ijaraga berishdan tushadigan to‘lovlarning muayyan qismini yo‘naltirish amaliyotini joriy etish lozim.

Mikromarkazlar tashkil etish. Yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 декабрдаги ““Маҳалла бюджети” тизimini жорий этиш орқали маҳаллаларнинг молиявий имкониятини янада кенгайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-458 сонли қарори <https://lex.uz/uz/docs/6326672>

bandligini ta'minlashda mikromarkaz hamda kichik sanoat zonalarining roli katta.

Iqtisodiyot va moliya, Investitsiya va tashqi savdo vazirliklari, Davlat aktivlarini boshqarish, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentliklari tomonidan quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

mikromarkazlar tashkil etish uchun auksion orqali sotiladigan yerlarni mulk huquqi asosida berish bo'yicha PQ-331-sonli hujjatga o'zgartirish kiritish, tadbirkorlarga mulkka bo'lgan qiziqishni oshiradi;

mikromarkazlar tashkil etish uchun auksion orqali sotiladigan yerlarni tadbirkorlarga ijaraga berish muddatini 5 yildan 30 yilga oshirish, uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-331-sonli qarorida mikromarkazlar tashkil etiladigan yerlar toifasini "qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar" dan "katta yo'l yoqasidagi bo'sh turgan yerlar" deb o'zgartirish, mikromarkazda ishlab chiqarishni tashkil etish istagi bo'lgan tadbirkorlarni ko'paytiradi va ular orasida raqobatni keltirib chiqaradi;

o'z mablag'i hisobidan mikromarkazlar tashkil etgan tadbirkorlar obyektlarini mikromarkaz sifatida ro'yxatdan o'tkazish va imtiyozlardan foydalanish imkonini yaratish yangi ish o'rinlari ko'payishiga imkon beradi;

tashkil etilgan mikromarkazlar va sanoat zonalarida mahsulotlar realizatsiyasi uchun yagona platforma yaratish mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Subsidiya va grantlar ajratish. Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiya va grantlar ijtimoiy ahvoli og'ir xonadonlarga yashash sharoitlaridan kelib chiqqan holda ma'lum turdagi mahsulotlarni yetishtirish imkoniyatini yaratadi.

Shundan kelib chiqib, aholining daromad olishiga imkon yaratish uchun ajratilayotgan subsidiya va grantlarni ham mahallalar darajasida ajratish, tizimdagi talon-tarojlikni kamaytirish uchun hokim yordamchilari tomonidan ikki oyda bir marta monitoring qilishni kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, aholini kasb-hunarga o'qitish, kichik tadbirkorlikni tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan subsidiya va grantlarning yangi turlarini ko'paytirish taklif etiladi. Yana bir jihat, inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda subsidiyalar miqdorini ham oshirib borish lozim.

Dehqonchilik uchun ajratilgan yerlardan samarali foydalanish. Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyatida auksion savdolar orqali 6125 gektar yer maydonlari 29 194 ta lotlarga bo'linib sotilgan. Biroq, savdo maydonchasida turgan yer maydonlari uzoq yillardan buyon zaxirada qolib ketgan, suvsiz, foydalanishga yaroqsiz yoki aholi xonadonlaridan uzoq hududlarda joylashganligi sababli takroriy tanlovlarga qo'yish holatlari aniqlandi.

Bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish, aholiga uzoq yilga ijaraga berilgan yerlarda hosildorlikni oshirish, ularga yanada qulayroq sharoitlarni yaratish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish maqsadida ijaraga berilgan yerlarning infratuzilmasini moliyalashtirish jamg'armasini tashkil etish taklif etiladi.

Mazkur jamg'armaga respublika budjetidan mablag' ajratish, mablag'larni ajratish masalasini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun viloyat xalq deputatlari Kengashida tasdiqlash, infratuzilma obyektlarini doimiy tasarruf etish va saqlab

turish tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, ajratilgan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

auksion orqali yer olgan fuqarolarga shartnomada “o‘zini o‘zi band qilish”, YaTT yoki “dehqon xo‘jaligini tashkil etish” majburiyatini kiritish;

yerlarni faqatgina ijtimoiy daftarlarga kiritilgan aholiga ajratilishi amaliyotidan voz kechish, yerni dehqonchilikdan habari bor ishsiz aholiga ajratish;

ijaraga berilgan yerlar platformasini yaratish, yer olganlar tomonidan yilda 2 marta bazaga ma’lumot kiritish imkonini yaratish;

mahsulotlarni ektirish, yetishtirish va sotish bilan shug‘ullanadigan “Agregator”larni tashkil etish;

auksion orqali ajratiladigan yerlarni “ball boniteti”ga qarab savdoga chiqarish taklif etiladi.

Infratuzilmani rivojlantirish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

“Obod mahalla”, “Obod ko‘cha” tamoyili asosida mahallada infratuzilmani yaxshilash, ko‘chalar va mahalla qiyofasini o‘zgartirishda xonadonlar ishtirokini kengaytirish, bunda asosiy ko‘chalarni ta’mirlash, suv quvurlarini yotqizish, simyog‘ochlarni almashtirish budjet mablag‘lari hisobidan, xonadonlar devorlarini ta’mirlash, daraxtlar va ariqlarni tartibga keltirish xonadonlar tomonidan amalga oshirish;

mahallalarda birinchi navbatda mahalla markaziga mikromarkazlar va sanoat zonalariga boradigan ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun mablag‘lar ajratishni kengaytirish;

mahallalarda aholi uchun “ochiq budjet”, “mening yo‘lim” kabi tanlov va loyihalar sonini ko‘paytirish;

yirik sanoat korxonalari o‘zi joylashgan mahallalar infratuzilmasiga ma’lum darajada zarar yetkazadi, shundan kelib chiqqan holda sanoat korxonalari mavjud bo‘lgan mahallalar hududida infratuzilmani yaxshilash uchun korxonalar tomonidan to‘lanadigan soliqlarning 5 foizini infratuzilmani yaxshilash uchun shu mahalla budjetiga o‘tkazib berish taklif etiladi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mahalla instituti kishilik jamiyatining shakllanishidan boshlab, bugungi davrga qadar uzoq o‘zining rivojlanish evolyusion yo‘lini bosib o‘tgan. O‘zbekistonda mahalla instituti o‘zini o‘zi boshqarishning asrlar sinovidan o‘tgan shakli hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida mahalla organlarining turli tarixiy davrlarda hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan roli tizimlashtirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi paytda bu sohadagi mahallaning roli ilgari hech qachon kuzatilmagan darajaga ko‘tarilgan. Mahalla institutining jamiyat rivojlanishidagi roli bo‘yicha o‘zbekistonlik va xorijlik olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahallaning iqtisodiy funksiyalari

vatandosh olimlardan ko‘ra xorijliklar tomonidan ancha mukammal o‘rganilgan.

2. So‘nggi yillarda davlatning mahallaga e‘tibori ortib borayotganini mahallabay ishlash tizimining joriy etilganligida ko‘rish mumkin. Ayniqsa, mahallaga kichik bir hudud sifatida qaralib, unga nisbatan iqtisodiy qarashlar o‘zgardi. Mahallaning “faol” modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta‘minlash borasida ishlar boshlandi. Resurslarni taqsimlash mahalla darajasigacha tushirildi, mahallaning o‘z budjetini shakllantirish bo‘yicha dastlabki qadamlar tashlandi. Mahalla instituti subyektlari vakolatlari qaytadan ko‘rib chiqildi. Vazirlik va idoralar faoliyati mahalla darajasigacha tushib olib borilishi mahallalarda ijtimoiy muammolarning kamayishiga hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga imkon yaratadi.

3. Mahallabay ishlash tizimidagi eng muhim bo‘g‘in mamlakatimizdagi mavjud 10 000 ga mahallalarda tashkil etilgan hokim yordamchisi lavozimi bo‘lib, u aholi tadbirkorligini rivojlantirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishsizlarning bandligini ta‘minlash, kasb-hunarga o‘qitish, kredit, subsidiya, yer ajratish masalalari bilan shug‘ullanadi, fuqarolarning tashkilotma-tashkilot ovora bo‘lib yurishlarini oldini oladi.

4. Mahallabay ishlash tizimining asosiy maqsadi – aholi orasida kambag‘allikni qisqartirish, hududlarda yetarlicha foydalanilmayotgan resurslarni ishlab chiqarishga keng jalb etish hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlari natijalari biz uchun o‘ziga xos dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida bu sohadagi Xitoy tajribasi mukammal o‘rganildi. Binobarin, dunyoda aholisi eng ko‘p ushbu mamlakat so‘nggi 30 yil mobaynida kambag‘allikdan batamom xalos bo‘ldi.

5. Mahallalarni “bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili bo‘yicha mevasabzavotchilik, issiqxona xo‘jaligi, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyunchilik, kurkachilik va boshqa yo‘nalishlarga ixtisoslashtirilishi o‘z multiplikativ samarasini beradi. Mahallalarda ixtisosluv bilan bir qatorda soha bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlar rivojlanishi uchun zanjirni shakllantiradi.

6. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra mahallalarda yashovchi xonadon vakillari uchun biznes sayohatlar tashkil etishni rag‘batlantirish tadbirkorlikni rivojlantirishda yaxshi natijalar beradi. Misol uchun Surxondaryo viloyati, Angor tumani, “Bahor” va “Ilg‘or”, Jarqo‘rg‘on tumani, “Avlod”, Uzun tumani “Yangi ro‘zg‘or” mahallalariga viloyatdagi boshqa mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi vakillari uchun biznes sayohatlar tashkil etish katta mablag‘ talab etmaydi. Aholi shu joyning o‘zida, o‘z ko‘zi bilan ixtisoslashuv natijalari bilan tanishish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

7. Aholiga uzoq yilga ijaraga berilgan yerlarda hosildorlikni oshirish uchun ijaraga berilgan yerlar infratuzilmasini moliyalashtirish jamg‘armasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jamg‘armaga respublika budjetidan mablag‘ ajratish, infratuzilma obyektlarini tashkil qilish bo‘yicha taklifni tegishli buyurtmachi tashkilotlar bilan kelishgan holda birlamchi hisob-kitoblar asosida talab etiladigan mablag‘larni ajratish masalasini viloyat xalq deputatlari Kengashida tasdiqlash,

infratuzilma obyektlarini doimiy tasarruf etish va saqlab turish tuman Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi zimmasiga yuklatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

8. Tadqiqot jarayonida mahallabay ishlash asosida Surxondaryo viloyatini iqtisodiy rivojlantirishning prognoz hisob-kitoblari amalga oshirildi. Tahlillarga ko'ra, viloyatda 2016–2020-yillarda yalpi hududiy mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 104,3 foizni, aholi jon boshiga YaHMning o'rtacha yillik o'sishi 102,1 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar mahallabay ishlash tizimida mos ravishda 106,0 va 103,7 foizni tashkil qilmoqda. So'nggi ikki yil davomida YaHM undan oldingi besh yil davomida o'sish sur'atidan 1,61 foizga, jon boshiga YaHM o'sish sur'ati 1,55 foizga oshgan va natijada ishsizlik 0,9 foizga kamaygan. Mahallabay ishlash tizimi ko'lamining ortib borishi bilan YaHM hajmi multiplikativ tarzda o'sadi, ishsizlik esa yanada qisqaradi.

9. Hisob-kitoblarga ko'ra viloyatda o'rtacha bitta yuridik shaklda tadbirkorlik subyektini tashkil etish uchun 92 mln.so'm kredit ajratish lozim. Viloyatda bitta tadbirkorlik subyekti tomonidan bir yilda o'rtacha 1,2 mlrd.so'm hajmda mahsulot ishlab chiqariladi. Yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi hisobiga 2027-yilgacha bo'lgan davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmi prognoz qilingan. Unga ko'ra 2023–2027-yillarda mahallabay yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish orqali viloyat yalpi hududiy mahsuloti qiymatining o'rtacha 15 foizi miqdorida mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi hamda kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

10. Hokim yordamchilari tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan kichik loyihalarning aksariyati xizmat ko'rsatish loyihalaridan iborat. Viloyatda xizmatlar ko'rsatish sohasi 2016–2020-yillarda o'rtacha 110 foizdan o'sgan bo'lsa, 2021–2022-yillarda 117,3 foizdan o'sgan. Mahallabay ishlash tizimi joriy etilgan yillarda o'rtacha o'sish 7,3 foizga oshgan. Amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko'ra, 2027-yilga kelib Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasida o'sish 119 foizga yetishi kutiladi.

11. Hozirgi kunda shunday xizmat turlari paydo bo'lmoqda-ki, bunday loyihalar uchun 2-3 kvadrat yer maydoni yetarli bo'ladi. Masalan, aholi punktlarida suv filtrlarini o'rnatish xizmatlari. Biroq auksion orqali kichik yer maydonlarining ajratilmasligi bu sohada tadbirkorlar uchun o'ziga xos to'siq bo'lib turibdi. Shu bois tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida kichik yer maydonlarini auksion orqali sotish g'oyasi muallif tomonidan ilgari surildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.14/30.12.2019.I.84.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ИНСТИТУТЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ ПРИ КАБИНЕТЕ МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

**ИНСТИТУТ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ**

ГАФУРОВ БУНЁД БАХТИЯРОВИЧ

**СИСТЕМА «МАХАЛЛЯБАЙ» – КАК ИНСТРУМЕНТ
СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТЬ В РЕГИОНАХ
(НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

08.00.12 – “Региональная экономика”

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан под № В2022.3.PhD/Iqt2479.

Диссертация выполнена в Институте макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (русский, узбекский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<https://ifmr.uz/>) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Зокиров Сайидфозил Сайидакбарович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Содиков Авазбек Мадаминович
доктор экономических наук, профессор

Рузиев Ойбек Абдимуминович
кандидат экономических наук

Ведущая организация: Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «28» 12 2023 года в 15:00 часов на заседании Разового научного совета на основе Научного совета №DSc.14/30.12.2019.I.84.01 по присуждению научных степеней при Институте макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан (Адресу: 100011, г. Ташкент, массив Хадра 33А, Тел.: (71) 244-01-17, E-mail: info@ifmr.uz, exat@ifmr.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан (регистрационный № 44). (Адрес: 100011, г. Ташкент, массив Хадра 33А. Тел.: (71) 244-01-17, e-mail: info@ifmr.uz, exat@ifmr.uz.)

Автореферат диссертации разослан «20» 12 2023 года
(протокол реестра № 3 от «20» 12 2023 года).



Т.М. Ахмедов

Председатель Разового научного совета на основе Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Д.М. Курбанова

Ученый секретарь Разового научного совета на основе Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат экономического наука

Д.М. Каримова

и.о. Председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В результате активной экономической политики социально-экономического развития регионов в странах мира уровень бедности населения в мире составил менее 8% к 2020 году в сравнении с 47% в 1980-х гг.¹ Сокращение данного показателя до 6 процентов к 2030 году обозначено в качестве одной из важнейших Целей устойчивого развития ООН².

В современных условиях интеграции и непредсказуемости в целях обеспечения устойчивости экономики учеными зарубежных стран проводятся масштабные научные и практические исследования, направленные на стимулирование предпринимательства и улучшение уровня жизни населения, эффективное использование имеющихся возможностей комплексного развития экономики регионов и микрорайонов, особенно отстающих территориях. В исследованиях данного направления особое внимание уделено вопросам совершенствования механизмов государственной поддержки отсталых регионов, широкого использования их природно-экономического и предпринимательского потенциала, сокращения различий между территориями, децентрализации управления экономики на основе применения современных методов регионального экономического развития.

Доведение реализации реформ регионального развития на уровень «махалли», а также инициатива главы государства по внедрению системы «махаллябай» положили начало новому этапу развития в нашей стране. В частности, Президент Республики Узбекистан в своем выступлении о системе ««махаллябай»» отметил, что: «с каждым часом в каждой семье должно появляться доверие»³. В этой связи, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи внедрения «активной» модели махалли, обеспечения необходимыми ресурсами и возможностями для непосредственного решения проблем населения и развития территорий»⁴. Вместе с этим, в Стратегии 2030 определены ряд задач таких как сокращение бедности до 2026 года в 2 раза в соотношении с 2022 годом, кардинальное сокращение до 2030 года, повышение доходов 4,5 миллиона человек, имеющих риск оказаться за чертой бедности, а также подготовка 500 тысяч квалифицированных специалистов на основе социального партнерства, где основная роль по реализации государственных программ отводится институту махалли⁵.

¹<https://data.worldbank.org/topic/poverty>. – Всемирный банк

²<https://sdgs.un.org/ru/goals/goal1> – ООН

³«Стратегия развития Нового Узбекистана на 2012-2026 годы». Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60. Сборник законодательных документов Республики Узбекистан, 2022 г., № 0082, п 3.

⁴«Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы». Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 <https://lex.uz/docs/5841077>.

⁵О стратегии «Узбекистан – 2030» Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 <https://lex.uz/ru/docs/6600404>.

Данная научно-исследовательская работа в определенной степени служит реализации Постановлений Президента Республики Узбекистан от 3 декабря 2021 года № ПП–31 «О мерах по организации деятельности помощников хокимов по вопросам развития предпринимательства, обеспечения занятости населения и сокращения бедности в махалле», 5 августа 2021 года № ПП–5214 «О дополнительных мерах по дальнейшей поддержке предпринимательства и развитию кооперации между субъектами предпринимательства и населением в махаллях», 21 апреля 2022 года № ПП–214 «О дополнительных мерах обеспечения занятости населения на основе развития надомничества», 23 августа 2021 года № ПП–5228 «О дополнительных мерах по созданию благоприятного инвестиционного климата, поощрению малого бизнеса и семейного предпринимательства в Сурхандарьинской области», Постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан от 10 мая 2022 года № 245 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий и дальнейшему повышению уровня жизни населения Сурхандарьинской области в 2022-2026 годах», 9 августа 2021 года № 504 «О мерах по снижению бедности за счет развития семейного предпринимательства и увеличения постоянных источников дохода населения на базе «махаллябай» в регионах».

